

## O‘ZBEK TILI MILLIY LINGVISTIK ATLASINI YARATISH MASALALARI VA UNING AYRIM MUAMMOLARI

**Eshto‘xtarova Munira**

Termiz davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek  
tili yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvistik geografiya, areal lingvistika kabi fanlar asosida o‘zbek tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biri bo‘lgan o‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish masalasi va ish davomida yuzaga keluvchi ayrim muammolar haqida so‘z yuritilgan. Ayrim taklif va mulohazalar orqali ba‘zi muammolarga yechim topishga harakat qilindi.*

***Kalit so‘zlar:** lingvistik geografiya, areal lingvistika, lingvistik atlas, xaritalashtirish, hududiy jihatdan o‘rganish tamoyili, til korpusi.*

Ma‘lumki bugungi ilm-fan, insoniyat tez sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda dunyoda har bir millat yashab qolishga, hayot va unda munosib o‘rniga egabo‘lishga astoydil harakat qilmoqda. Shubhasiz, tilning yashab qolishi bu o‘sha millatning yashab qolishi uchun muhim omillardan eng birinchisidir. Zeroki, til yashasa millat yashaydi. Shu bois ham butun dunyoda tilshunos olimlar o‘z tillarini tirik saqlab qolishga, uning xalqaro maydonda kengroq yoyilishi va o‘rganilishiga bor kuchlarini safarbar etishmoqda. O‘zlarining milliy til korpuslarini yaratish, o‘z tilini kompyuter va ilm-fan tiliga aylantirish, uni hududiy va dialektal asosda o‘rganib uni boyitish, o‘rganilgan materiallar asosida milliy lingvistik atlaslar yaratishga urinmoqda. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida bu kabi ishlar aksariyat tugallangan, ya‘ni ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar va ularning tillarining milliy korpusi va milliy lingvistik atlaslari yaratilib bo‘lingan. Achinarlisi esa o‘zbek tilida bu kabi

ishlar hali nihoyasiga yetishi uchun ancha vaqt va mehnat talab qiladi, qilinajak ishlari esa bisyor. Xususan o‘zbek tilining milliy lingvistik atlasini yaratish ishlari hali boshlanmagan ham. O‘zbek tili milliy atlasini yaratishning dolzarb masala ekanligi va bu borada qanday ishlar amalga pshirilishi kerakligi, hamda bu yo‘lda duch kelinishi mumkin bo‘lgan muammolar va ishning ahamiyati haqida gapirishdan oldin lingvistik atlaslar va ularni yaralishiga asos bo‘lgan Lingvistik geografiya fani haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

XIX asrning o‘rtalarida, dialektologik kuzatishlar rivojlangan, dialektologlar, dialektlar va ularning xususiyatlari to‘g‘risida yetarli faktik materiallar to‘plangan joylarda tilshunoslikda Lingvistik geografiya nomli yangi bir soha paydo bo‘ldi. Tilshunoslikdagi bu yangi yo‘nalishning rivojida, dialektologik fikrning keyingi taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu borada Yevropa tilshunoslarining o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Fransiyada Jan Jilyeron, Germaniyada Georg Venker, F.Vrede, P.Meyyerlar, Russiyada I.I.Sreznevskiy kabilar Lingvistik geografiya fanining tom ma’nodagi asoschilari bo‘ldi.

Russiyada lingvistik geografiyaning paydo bo‘lishi va rivoji I.I.Sreznevskiyning nomi bilan bog‘liq. I.I.Sreznevskiy o‘tgan asrning 50-yillaridayoq bu sohani o‘rganish va rivojlantirish masalasini qo‘ydi va bu yangi sohaning o‘rni va vazifalarini belgilovchi asarlar yaratdi.

O‘zbekistonda esa lingvo-geografik metod bilan shevalarni o‘rganish 1940 yillarda boshlandi va bu sohada ish davom etmoqda.

Dialektologik atlaslarning dastlabki namunalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yaratilgan.

Yevropada tuzilgan eng muhim dialektologik atlas quyidagilar: Venker va Vredelarning «Nemis tili atlasini» (1876- 1926 yillar mobaynida yaratilgan); Marburgdagi nemis dialektologiyasi markaziy instituti nashr etgan «Nemis leksikologik atlasini»; Jilyeron va Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlasini» (1902-1912 yillar mobaynida yaratilgan); Yaberg va Yudning 8 jildli «Italyan-shveytsar atlasini» (1928-1940) sobiq SSSRda tuzilgan eng muhim dialektologik atlaslar «Moskva

sharqidagi markaziy oblastlar rus xalqi shevalari atlasini» (1957); «Shimoli – gʻarbiy oblastlar rus xalq shevalari atlasini» va respublikalarda nashr etilgan «Ukrain tili xalq shevalari atlasini», «Belarus tili xalq shevalari atlasini va boshqalar».

Oʻzbek tilshunosligining hali yosh sohalaridan biri oʻzbek dialektologiyasi oʻzining boshlangʻich davri – dialektografiya bosqichini oʻtab, endi u toʻplangan boy material – baza asosida hozirgi zamon dialektologiyasining nazariy masalalarini ishlash, shu bilan birga lingvistik geografiya masalalari bilan shugʻullangan bosqichiga oʻtdi.

Oʻzbek shevalarini lingvistik geografiya metodi bilan oʻrganish ishi 1944 yilda boshlangan edi. Shundan soʻng professorlar A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, M.Mirzayev, A.Aliyev, A.Gʻulomov, K.Nazarov, F.A.Abdullayev, A.Shermatovlarning olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan ishlari salmoqli boʻldi.

XIX asrda fransuz dialektologi Jan Jilyeron butun fransiyani velosipedda aylanib chiqib, fransuz tilining dialektal atlasini yaratgan boʻlsa Oʻzbekistonda ham dialektologik atlas yaratish ishi ancha rivojlangan. Bu sohada Sh.Shoabdurahmonov, K.Muhammadjonov, A.Joʻrayev, A.Shermatov, Y.Ibrohimovlarning tadqiqotlari mavjud. Akademik Sh.Shoabdurahmonov Oʻzbekistonda birinchi boʻlib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Professorlar K.Muhammadjonov Shimoliy oʻzbek shevalarini, A.Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, dotsent Y.Ibrohimov esa Orol boʻyi oʻzbek shevalarini kartalashtirgan.

Ayniqsa oʻzbek shevalarini lingvo-geografik metod asosida ilmiy tadqiq qilishda A.Shermatov samarali hissa qoʻshdi. U “Qashqadaryo guruh shevalari kartasi”ni tuzib chiqdi. Bu tadqiqot 167 karta bilan oʻz yakunini topdi.

Yuqorida keltirilgan ishlarning salmogʻi anchagina keng boʻlishiga qaramasdan hali Oʻzbek tilining milliy lingvistik atlasini yaratish masalasini asosiy planda mukammal amalga oshirish ishlari yoʻlga qoʻyilmagan. Ushbu maqolaning asosiy mazmuni ham aynan oʻzbek tili va shevalarini areal nuqtai nazardan oʻrganish va toʻplangan materiallarni kartalarga tushirish ishlarini tezroq yakunlash, bu orqali

yaxlit O‘zbek tilining milliy lingvistik atlasini yaratish ishini tugallash masalasini ilgari surishdir. Yaratilajak atlasni esa faqatgina to‘plam ko‘rinishida qog‘ozga chop etish emas, uning ilovasini yaratib, bu dasturdan tilshunoslar va tilga qiziquvchi barcha, hamda keng jamoatchilik foydalana olishini ta‘minlash maqsadida internet tarmog‘iga joylash har tomonlama maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada esa O‘zbekiston hududiga tashrif buyuruvchi va tashrif oldidan xalqimiz tili va madaniyatini o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijliklar, shuningdek ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining ham ma‘lum bir hududdan o‘zgasiga ko‘chishi yoki vaqtinchalik tashrifi oldidan tanlangan manzil hamda unda yashovchi aholining tildagi o‘ziga xosliklar bilan tanishib, oz bo‘lsada tushunchaga ega bo‘lib borishlari uchun muhim manbaga ega bo‘lishadi. Dastur foydalanish uchun har jihatdan qulay va hamma uchun manfaatli bo‘ladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Аванесов Р.И. Лингвистическая география и история русского языка, “Вопросы языкознания” № 6 1952.
2. Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O‘zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O‘qituvchi” , 1978-yil
3. Ashirboyev S, “O‘zbek dialektologiyasi” Toshkent, 2000-y / ma‘ruza matni/
4. Rajabov N “O‘zbek Shevashunosligi” Toshkent, “O‘qituvchi” 1996 -yil.
5. Murodova N “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoarealini”, Toshkent , “Fan” 2007- yil
6. Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997 -yil.
7. Shermatov A “Lingvistik geografiya nima”, Toshkent, 1981- yil